

MAKTAB TA'LIM TIZIMI TARBIYA JARAYONI HAMDA INKLYUZIV TA'LIMNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIIY MUAMMOLARI VA ULARNING YECHIMLARI HAQIDA.

*Farg'ona viloyati So'x tumanining
4 - sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
8 - g sinf o'quvchisi **Homidjonova Bibiyetti***

Anotatsiya: Ushbu maqolada maktab ta'lim tizimining hamda tarbiya jarayonidagi asosiy muammolar shuningdek inklyuziv talimning ijtimoiy muammolari va ularni yechimlari haqida fikr yuritilgan.

Annotation: This article discusses the main problems in the school education system and the upbringing process, as well as the social issues of inclusive education and possible solutions to them.

Аннотация: В данной статье рассматриваются основные проблемы системы школьного образования и воспитательного процесса, а также социальные проблемы инклюзивного образования и возможные пути их решения.

Kalit so'zlar: Ta'lim, tarbiya, odob, axloq, oila, jamiyat, maktab, o'qituvchi, o'quvchi, inklyuziv ta'lim.

Keywords: Education, upbringing, manners, ethics, family, society, school, teacher, student, inclusive education.

Ключевые слова: Образование, воспитание, поведение, нравственность, семья, общество, школа, учитель, ученик, инклюзивное образование.

Kirish

Takror va takror aytaman: Yangi O'zbekistonning asosiy ustuni - bilim, ta'lim, va tarbiya bo'ladi.

Shavkat Mirziyoyev

Hammamiz aziz farzandlarimiz hayoti va taqdirini o'qituvchi va murabbiylarga ishonib topshiramiz. Mana shunday beqiyos boylik posbonlari, kelajak bunyodkorlari bo'lgan bu mo'tabar zotlarga munosib hurmat-ehtirom ko'rsatishimiz kerak. Maktab bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak", Davlatimiz rahbari o'qituvchining maqomi va nufuzini oshirish, huquqlari va imtiyozlarini kengaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratdi. Xususan konstitutsiyamizning 52-moddasida ham O'zbekiston Respublikasida o'qituvchining mehnati jamiyat va davlatni rivojlantirish, sog'lom, barkamol avlodni shakllantirish hamda tarbiyalash, xalqning ma'naviy va madaniy salohiyatini saqlash hamda boyitishning asosi sifatida

e'tirof etiladi. Davlat o'qituvchilarning sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish, ularning ijtimoiy va moddiy farovonligi, kasbiy jihatdan o'sishi to'g'risida g'amxo'rlik qiladi. Deb belgilab qo'yilgan.

Asosiy qism

Maktab ta'lim tizimidagi ijtimoiy muammolar. Har bir insonni ustoz tarbiyalab boradi. Endi hech o'zingizga ustoz kim deb ko'rganmisiz. Ustoz — bu faqat dars beruvchi yoki baho qo'yuvchi inson emas. Ustoz — hayotning o'zida yo'l ko'rsatuvchi, qalblarga nur sochuvchi, insonni inson qiluvchi buyuk zotdir. Har birimizning hayotimizda kamida bitta ustoz bo'ladi — kimdir bizga harfni o'rgatgan, kimdir to'g'ri yo'lni tanlashga yordam bergan, yana kimdir esa sukut bilan, o'z hayoti orqali bizni tarbiyalagan. Ustozlik — bu kasb emas, bu mas'uliyat, fidoyilik va mehr talab qiladigan hayot tarzidir. Ustoz o'z bilimini, tajribasini boshqalarga baxsh etar ekan, aslida o'zining umrini, vaqti va kuchini kelajak avlod uchun sarflaydi. U o'quvchining muvaffaqiyatidan quvonadi, xatosidan esa o'zini aybdor his etadi. Ba'zan biz ustozning qadriga faqat oradan yillar o'tganidan so'ng yetamiz. O'shanda tushunamizki, ustoz bizni faqat darsda emas, hayotning o'zida sinovlarga tayyorlab kelgan. U sabrni, halollikni, insoniylikni o'rgatgan. Ustoz — bu jamiyatning yuragi. Agar yurak to'xtasa, hayot ham to'xtaydi. Shuning uchun ustozga hurmat — bu ilmga, tarbiyaga va kelajakka hurmat demakdir. Hattoki Alisher Navoiy, Abu Ali Ibn Sino, Zahiriddin Muhammad Bobur, Al Xorazmiy, Al Beruniy, Amir Temur kabi buyuk mutaffakkirlarni ham ustoz tarbiyalab borgan. Endi bugungi kundagi Maktab ta'lim tizimidagi asosiy muammolarimizga to'xtalib o'tsak. Bugungi kunda maktab ta'lim tizimi jamiyat hayotining eng muhim sohalaridan biridir. Chunki maktab — bu insonning birinchi hayot maktabi, bilim va tarbiyaning poydevori. Ammo afsuski, bu tizimda hal etilishi lozim bo'lgan bir qator muammolar hamon mavjud. Avvalo, ta'lim sifati masalasi dolzarbdir. Ba'zi maktablarda o'qitish uslublari hanuz eskicha, zamonaviy pedagogik yondashuvlar yetarli darajada qo'llanilmaydi. Natijada, o'quvchilar mustaqil fikrlash, tahlil qilish ko'nikmalarini yetarlicha rivojlantira olmayapti. Qolaversa Elektron doskalarni maktablarda yetarli emasligi, Chunki biror mavzudagi biror jismni eshitishdan ko'ra uni ko'rish afzalroq, elektron doska orqali o'tilgan mavzularni o'quvchi yaxshiroq qabul qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Ikkinchi muammo — o'qituvchilarning mehnati va nufuzi. Ko'p hollarda ustozlarning mehnati yetarlicha qadrlanmaydi. Bu esa yosh kadrlarning ta'lim sohasiga kirish istagini pasaytiradi. Ustoz hurmati va uning mehnatini e'tirof etish — har bir jamiyatning burchidir. Yana bir muhim masala — darsliklar sifati va yangiligi. Ba'zi darsliklarda ma'lumotlar eskirgan, ayrimlari esa o'quvchilarning yoshiga va zamonaviy talablariga mos emas. Bu esa o'quvchilarni o'qishga qiziqtirish o'rniga, ularni charchatadi. Shuningdek, texnologiyalarni ta'limga joriy etish ham har bir maktabda teng emas. Ba'zi joylarda kompyuterlar, internet tarmog'i yoki raqamli vositalar yetishmaydi. Bu

esa ta'limdagi tengsizlikni keltirib chiqaradi. Maktab darsliklariga to'xtalsak. Har bir maktabda ingliz tili fani o'qitilishini yo'lga qo'yishimiz kerak. Shuningdek psixologiya fanini ham darsliklar qatoriga qo'shish kerak deb o'ylayman. Qolaversa har bir o'qituvchini o'zi ham bolalar psixologiyasi bo'yicha malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim deb o'ylayman. Yana bir asosiy muammolarimizdan biri bu oila va maktab hamkorligi zaif. Ko'plab bolalar ota-onalarining e'tiboridan mahrum bo'lib, maktabdagi muhim faoliyatlarda yetarlicha ishtirok eta olmaydi. Bu esa ularning ta'lim olish imkoniyatini kamaytiradi.

Tarbiya jarayonidagi muammolarimiz. Ta'lim so'zi bilan doim yonma yon tilga olinadigan masala bu albatta tarbiya masalasidir. Eng asosiysi, tarbiya masalasini ham e'tibordan chetda qolmasligimiz kerak. Chunki maktab faqat bilim beruvchi emas, balki komil insonni tarbiyalovchi maskandir. Tarbiya haqida gap ketganda eng avvalo Ma'rifatparvar olim Abdulla Avloniy bundan yuz yillar avval aytgan "Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir" degan iborasi yodimizga kelaveradi chunki bu iboralar ayni kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Tarbiya – inson shaxsi, ma'naviy qiyofasini shakllantirishga qaratilgan tadbirlar tizimidir. Ta'lim esa axloqli, odobli shaxsga hunar o'rgatish, bilim berishdir. Inson shaxsini shakllantirish bilan bog'liq bo'lgan tarbiya va ta'lim birbiri bilan uzviy bog'langan jarayondir. Abdulla Avloniy ta'lim va tarbiyaning mushtarakligi haqida shunday yozadi: «Dars (ya'ni ta'lim) ila tarbiya orasida biroz farq bo'lsa ham, ikkisi bir-biridan ayrilmaydigan, birining vujudi biriga boylangan jon ila tan kabidir.

Tarbiya jarayoni avvalo oiladan boshlanadi. Tarbiya hayotimizning bir qismidir, tarbiya bu qilgan hatti harakatlarimiz, tarbiya bu kiygan kiyimimiz, tarbiya bu kundalik hayotimiz bilan chamcharchas bog'liqlikdir. Tarbiyani bizda ota-onamiz shakllantiradi. Tarbiya hayotimizning ajralmas qismidir. Ko'pgina hollarda Ota-onamiz bizni qanday tarbiyalashsa shunday inson bo'lib yetishamiz. Ko'pgina ota-onalar farzandlarini tarbiyalashda xatolarga yo'l qo'yishadi. Ayblovlar va tahdidlar bu ota-onalar farzandlarini tarbiyalashda yo'l qo'yadigan odatiy xatolardir, qo'rqitish va shantaj qilish yo'li bilan bolalarni tarbiyalash notug'ri usuldir. Bu ota-onalarning farzand tarbiyalashda yo'l qo'yadigan eng asosiy xatolaridan biridir. "Uyalmaysizmi" iborasi bolani tushkunlikka tushiradi, o'zining qadrsizligi haqida o'ylashga majbur qiladi. o'z qadr qimmatini pasaytiradi va tashabbusini yo'q qiladi. Bolalar ko'pincha noto'g'ri hatti harakatlar qiladilar, ammo ular janjalga arzimaydi. Doimiy ayblovlar tufayli bola hayotga qiziqishni to'xtatadi, o'ziga ishonmaydigan bo'lib qoladi. Bolani yutuqlari uchun maqtash va rag'batlantirish, noto'g'ri hatti-harakatlari uchun tanbeh berish lekin haddan tashqari oshmaslikham kerak.

Albatta ota-onalar farzandlarini yaxshi ko'radilar va ularga g'amxorlik qiladilar. Ammo bolalar katta bo'lganda ularni haddan tashqari himoya qilish

otaonalarining xatosi hisoblanadi. Siz farzandingizni mustaqil bo'lishga o'rgatishingiz kerak. Bola o'zi qaror qilsin va o'zi uchun biror nima qilsin, va agar u noto'g'ri qaror qabul qilsaham xatolaridan saboq olsin. Farzandingizni o'ziga ishonishiga yordam bering. Shaxsiy makon har qanday inson uchun muhimdir va sizning farzandingizham bundan mustasno emas. Albatta uning o'z sirlari bo'lishi mumkin.

Prezidentiiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib "Bolalarimizni birovni qo'lga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim". Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini yechish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak deb ta'kidlab o'tganlar.

Inklyuziv ta'limdagi muammolarimiz. Inklyuziv ta'lim ingliz tilidan olingan bo'lib, inclusive, inclusion uyg'unlashmoq, qamrab olmoq, qamrab olish ma'nolarini bildiradi. Inklyuziv ta'lim bu nogiron va maxsus ehtiyojli bolalar o'rtasidagi to'siqlarni bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar va o'smirlarni rivojlanishidagi nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar, oilaning faol ishtirokida, xususan bolaning ehtiyojini qondirishga va ijtimoiy hayotga moslashtirishga qaratilgan umumta'lim tizimiga to'liq qo'shishini ifodalovchi shaklidir. Turli xildagi sabablarga ko'ra ruhan yoki jismonan nuqsonli bo'lib qolgan bolalarni jamiyatdan alohida e'tiborsiz holda tashlab qo'yib bo'lmaydi. Bunday bolalar nuqsonliligi sabablari imkoniyatlari chegaralanib qolganligi oqibatida korreksion yordamga muhtoj. Nogiron bolalar bilan korreksion ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi ish olib borish, ijtimoiy jamiyatga adaptatsiyalash, imkoniyatlaridan foydalanib, o'z-o'ziga xizmat qila oladigan va jamiyatga ma'lum darajada nafi tegadigan qilib voyaga yetkazish har bir davlatning eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ta'biri bilan aytganda "Har qanday xalqning ma'naviyati shu jamiyatda yashovchi nogironlarga bo'lgan e'tibori bilan ham belgilanadi".

Inklyuziv ta'limning mohiyati shundan iboratki, ruhiy yoki jismoniy rivojlanishda orqada qolganligi sababli maxsus yordamga muhtoj bo'lgan bolalardan "nogiron" degan tamg'ani olib tashlab, normal rivojlanishdagi bolalar bilan birga teng huquqlilikni ta'minlash, jamiyatga to'laqonli, erta moslashtirish, mavjud imkoniyatlardan foydalana olishlarini ta'minlash maqsadida umumta'lim maktablari tizimida o'qitishdan iborat. Erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda inklyuziv ta'limni joriy qilishda ko'plab muammolar va to'siqlar talaygina. Muammolarni va to'siqlarni hal etish zaruriyatidir. Chunki jamiyatimizda yashayotgan har bir maxsus yordamga muhtoj bola bizning ham farzandimiz. Alohida ehtiyojli bolalarga "Ular kimning farzandi?" deya savol berish o'rinsizdir. Zero, ularning kamoloti bizning ham kamolotimiz, ularning fojeasi bizning ham fojeamizdir.

Xulosa

1. Maktabni o'zgartirmasdan turib, odamni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi. Ta'lim va tarbiyaning asosi, poydevori bu – maktab. Maktabni maktab qiladigan kuch esa o'qituvchilardir. Maktab – bu hayot-mamot masalasi, kelajak masalasi. Uni davlat, hukumat va hokimlarning o'zi hal qilolmaydi. Bu butun jamiyatning ishi, burchiga aylanishi kerak. Maktab o'qituvchisini moddiy rag'batlantirmasak, uning hayot sifati darajasini oshirmasak, islohot, natija haqida gapira olmaymiz". O'qituvchi va murabbiylarning o'zi ham bilim va kasb mahoratini oshirish, jamoat ishlarida faol ishtirok etish, halol mehnati va tashabbuskorligi bilan bu kasbning obro'sini oshirishi kerak". Demak, ta'lim tizimidagi muammolarni bartaraf etish uchun nafaqat davlat, balki har bir o'qituvchi, ota-ona va o'quvchi ham o'z hissasini qo'shishi zarur. Chunki maktab — bu kelajak, kelajak esa bizning qo'limizda.

2. Oilada farzand tarbiyasi-oila baxtli, farzandlarning tarbiyali yetuk inson bo'lib yetishidagi ota-onaning sa'yi harakati hisoblanadi. Oiladagi farzand tarbiyasi uning kelajakda kim bo'lib yetishishida muhim o'rin tutadi. Demak, bola oilada jamiyatning qiyofasini ko'radi, bo'lajak fuqaroning tabiati, dunyoqarashi va axloqiy qiyofasi oilada shakllanadi hamda shunga ko'ra kamol topib boradi.

3. O'zbekistonda inklyuziv ta'limni yanada rivojlantirish har bir fuqarolarning ijtimoiy jihatdan teng ekanliklarini yana bir bor o'zida aks ettiradi. Inklyuziv ta'limning zamirida INSON QADRI atalmish buyuk tuyg'u yotadi. Zero prezidentimiz ta'kidlaganlaridek: "Inson qadri barcha narsadan ulug'". Hech o'ylab ko'rganmisiz, biz har kuni yurgan yo'llardan ayrim bolalar yura olmaydi, biz har kuni ko'rgan go'zallikni, atrof olamdagi voqea-hodisalarni eshita olmaydi, ko'ra olmaydi, chunki uning harakatlanishi falajlik oqibatida chegaralanib qolgan, uning ko'zlari ojiz, quloqlari eshitmaydi. Ammo bu bola ham har tomonlama sog'lom bo'lib voyaga yetishi, hamma qatori jamiki go'zalliklardan bahra olib yashashi mumkin edi, biroq salbiy omillar ta'sirida u bundan bebahra qolgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati. :

1. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev raisligida 2020-yil 23 avgust kuni xalq ta'limi tizimini rivojlantirish, pedagoglarning malakasi va jamiyatdagi nufuzini oshirish, yosh avlod ma'naviyatini yuksaltirish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi.
2. Shayx Muhammad Sodiq Yusufning "Tarbiya va Xulq" haqidagi fikrlari.
3. Shayx Muhammad Sodiq Yusufning "Baxtiyor oila" kitobi.
4. O'zbekiston Respublikasining 2020-2025-yillarda Xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi.
5. U.J. Mansurov. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar: Inklyuziv ta'lim va yangicha pedagogik yondashuvlar.